

МАHMUDXO`JA BEHBUDIYNING UCHINCHI RENESANS QURUSHDA G`OYALARINING TADQIQ ETILISHI

Nishonov Muhammad Bahodir o'g'li

Alfraganus universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrasi 1-bosqich
magistratanti, muhammadnishonov1998@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Pulatov Sherdor Nematjonovich

Alfraganus universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedra mudiri, falsafa fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadidlar amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlar. Shu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qilganlar.

Annotatsiya: Третий Ренессанс в нашей стране мог быть осуществлен просвещенными джадидами в XX веке. Потому что именно эти самоотверженные и страстные люди посвятили всю свою жизнь идеи национального возрождения, мобилизовав все свои силы и возможности, чтобы вывести страну из невежества и отсталости, спасти нашу нацию от болота невежества. На этом пути они также пожертвовали своими дорогими душами.

Annotatsiya: The third renaissance in our country could be carried out by the enlightened jadids in the 20th century. Why, these selfless and ardent breeds have devoted their entire lives to the idea of national awakening, mobilizing all their might and opportunity to bring the country out of ignorance and backward, to save our nation from the swamp of grief. Along the way, they also sacrificed their noble souls.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans jadidlari ta'limotida, madaniy-ma'naviy salohiyat, islomning barkamol avlodni ma'naviy tarbiyalashdagi o'rnini to'g'ri talqin qilish.

Yangi O'zbekiston fenomeni, "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari", Uyg'onish, Renessans, Uchinchi Renessans, "Uchinchi Renessans poydevorini yaratish" g'oyasi, "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi, Yoshlar huquqlari bo'yicha konvensiya. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Yangi O'zbekiston» gazetasiga bergen intervyusida Uchinchi Renessans va Yangi O'zbekiston konsepsiyalari nimani anglatishi haqida so'zlab berdi. Uchinchi Renessans (Uyg'onish) haqida gap ketganda, avvalo, ma'rifatparvar jadidlar faoliyatiga e'tibor qaratishga to'g'ri keladi. Chunki, jadidlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va

imkoniyatlarini safarbar etganlar, shu yo'lda o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qilganlar. Ular "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lshi ham mumkin emas" degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bilganlar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarni chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisoblaganlar. Ma'lumki, ona tili – millat ma'naviyatining mustahkam poydevoridir. Ulug' ma'rifatparvar Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyinai hayoti – bu uning milliy tili va adabiyotidir". Shu ma'noda, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallashni maqsad qilib qo'ygan har qaysi davlat avvalo o'z xalqining milliy tili va madaniyatini asrabavaylashga, rivojlantirishga intiladi.

Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy arbiyasiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Negaki, mamlakatimizdagi mavjud uzlusiz ta'lim tizimi aholimizning beshdan bir qismini qamrab olgan. Ushbu tizim qamrab olgan bolalar va o'smirlardan tashqari, aholining katta qismi orasida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlaringning tizimli yo'lga qo'yilishi va bu borada yuksak samaradorlikka erishish o'tkir zaruratga aylanmoqda. Aynan ta'lim-tarbiya va ma'rifat jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezzulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatl i bo'lishga undaydi. Uzlusiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyaasoslarini kuchaytirish lozim. "Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi", degan chukur ma'noli gapni ko'p takrorlaymiz. Lekin, afsuski, joylarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ana shu qoidaga amal qilinmayapti. Bu borada bog'cha, mакtab, олий та'лим, mahalla tizimining har biri alohida ish olib borayotgani, ya'ni, o'zarohamkorlik Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o'z ketidan ergashtira oladi. Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo'lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo'lishlarini ta'kidlaydilar. Misol uchun, Mahmudxo'ja Behbudi yosh yigitchalarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni xabardor qilgan va Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo dokonlarini qattiq tanqid ostiga oladi. Uning fikricha, bunday do'konlar masjid va madrasalarning yaqinida bo'lib, bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Mahmudxo'ja Behbudi barchani kelajak avlodni sog'lom o'stirishga chorlaydi. Sog'lom aqli, bilimli farzandlarimiz o'sib ulg'ayib, o'qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, xuquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxasislar yetishib chiqishini o'rzu qilgan. Sog'lom farzandlarni tarbiyalash uchun o'qib-o'rganib ilmli, ma'rifatli, eng asosiysi esa ota-onalar o'z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallashga yordam berishlarini ta'kidlaganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta'lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so'z yuritib, o'z farzandining ma'rifatli bo'lishi uchun qo'llaridan kelgancha harakat

qiladigan zotlar mavjudligini ta'kidlagan. Jadidlar ota-onalar o'z farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta'kidlaganlar. Maktab va madrasalarda o'qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o'quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallashlari kerakligini uqtirganlar. Adabiyotlarda yozilishicha, Behbudiy Bayrut oliy o'quv yurtlari va dorulfununida farang, olomon va ingliz tillarida o'qitilishi, Yevropalik olimlarning u yerda dars berishi, kimyo labaratoriyaning borligi, tibbiyot oliygohlarida jarrohlik xonalarining borligiga havas va e'tiqod qilgan bo'lib, ona-Turkistonning taraqqiyotdan naqadar orqada qolganini afsuslar bilan yozadi. Mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadidlar amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlar. Shu yo'lida ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurban qilganlar. Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jaev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug' insonlar milliy uyg'onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turgan. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrler tashkil etganlar.

Prezidentimiz joriy yil O'qituvchi va murabbiylar kuni dagi nutqida alohida e'tirof qilganidek, jadidlarimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo'l bermagan. Ular o'sha davr turli kimsalarining tuhmat-malomatlari duchor bo'ldilar. Dastlab Rus podshohligi, keyinchalik sho'rolar hukumati ularni ayovsiz quvg'in va qatag'on qilgan. Oqibatda milliy uyg'onish va taraqqiyot harakati Vatanimiz uchun yorqin xotira sifatida qoldi. Yurtimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi hozirgi davrda ham katta ahamiyatga egadir. XX asr 90-yillari boshlarida O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgach, Renessansning uchinchi yangi bosqichi uchun qulay sharoit vujudga keldi. 2014 yil 14-15 may kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy anjumanda yurtimiz uchinchi Uyg'onish davri bo'sag'asida turganligi alohida ta'kidlangandi. Binobarin, qariyb 30 yil davomida, ayniqsa, asrlarga tatigulik keyingi uch-to'rt yillik qisqa davrda beqiyos va keng qamrovli bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda biz uchinchi Uyg'onish davri ostonasida turibmiz. Agar O'zbekiston Prezidentining keyingi to'rt yilda ma'rifat, ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish yo'lida imzolagan qonun, farmon va qarorlari, tasdiqlagan Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslarining mag'zini to'la chaqib ko'rsak, navbatdagi Ma'rifat Renessansining markazi O'zbekiston ekaniga hech kimda shubha qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Jadidlar g’oyasi — Yangi O’zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg’un va hamohang” Sh.Mirziyoyev 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig’ilishi
2. “Jadidlar: milliy o’zlik, istiqlol va davlatchilik g’oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya 11–12-dekabr 2023 Sh.Mirziyoyev
3. Shavkat Mirziyoyev “YANGI O’ZBEKISTON STRATEGIYASI”.— Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti. 2021. 24 bet
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O’zbekiston, 2020
5. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son
6. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B108-109